

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHI VA TARBIYASIDA XALQ ERTAKLARI VA MAQOLLARNING ROLI

Annotatsiya: Mazkur ilmiy izlanishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning intellektual, ma'naviy va axloqiy rivojlanishida xalq ertaklari va maqollarining o'rni va ahamiyati tadqiq etilgan. Ertak va maqollar bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish, ularning dunyoqarashini shakllantirish va milliy qadriyatlarni singdirishda asosiy vosita sifatida baholangan.

Annotation: This research explores the role and significance of folk tales and proverbs in the intellectual, moral, and spiritual development of preschool-aged children. Folk tales and proverbs are evaluated as key tools for fostering creativity, shaping their worldview, and instilling national values in young learners.

Tayanch so'zlar: Maktabgacha ta'lim, Bolalar rivojlanishi, Intellektual rivojlanish, Ma'naviy tarbiya, Axloqiy tarbiya, Xalq ertaklari

Keywords: Preschool education, Child development, Intellectual development, Moral education, Ethical upbringing, Folk tales.

O'zbek xalq og'zaki ijodi ma'naviy boyligimiz hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi asarlarida vatanni sevuvchi, uning tashvishini o'zining tashvishi, quvonchini o'zining sevinchi deb biluvchi, ona tuprog'i uchun kurashuvchi kishilar sharaflanadi, eng yomon so'zlar va qora bo'yoqlar salbiy obrazlarga nisbatan qo'llanadi. Xalqning, millatning jajji vakillari bo'lmish bolalarning beg'ubor dunyosini aks ettiruvchi, beg'ubor qalbining tarjimoni hisoblanuvchi bir bo'lagi ertakdir.

Xalq ertaklari har bir inson va butun xalq hayotida katta ahamiyatga ega. Ertaklarning muhim roli shundaki, ular boshidan kechirgan barcha narsalarning qimmatli ombori, o'tmishdagi hayot aksini abadiy saqlab qolgan ko'zgudir.

Xalq og'zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertakdir. Ertak bolalarning tarbiyasida ajralmas element hisoblanadi. Ertak bolada hayot haqida tasavvur uyg'otadi, yaxshi va yomonni ajratishga ko'maklashadi, murakkab vaziyatlardan chiqish yo'llarini o'rgatadi.

Ertak so'zning lug'aviy ma'nosi - aytish, aytmoq, hikoya qilmoq ma'nosini bildiradi. M.Qoshg'ariy o'z «Devonu lug'otit turk» asarida turkiy xalqlarda uning «etuk» atamasi bilan yuritilganini qayd etadi. Unga ko'ra, etuk «biror voqeani og'zaki hikoya qilish»ni anglatadi.¹

¹ Mahmud Qashg'ariy «Devonu lug'otit turk». 3 tomlik

Ertaklarning pedagogik qiymati shundan iboratki, bolalar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo'lishini istaydilar. Ertak muhim axloqiy toifalar - yaxshilik va yomonlik haqida beg'ubor hikoya qiladi.

Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o'qishgagina emas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi, muloqotni to'g'ri tashkil etishga, izchil mantiqiy nutqni rivojlantirishga yordam beradi.

Ertak bolaning xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlarni ijobiy tomonga masalan yolg'onchilik, o'g'rilik, qo'pollik, badjahillik, dangasalik, yig'loqilik, qo'rquv kabilarni to'g'riso'zlik, oqko'ngillik, muloyimlik, ozodalik, mehnatsevarlik, botirlik tuyg'ulariga o'girishga samarali yordam beradi.

Xalq ertaklari o'z xususiyatlariga ko'ra bir necha turga bo'linadi:

- hayotiy ertaklar;
- hayvonlar haqidagi ertaklar;
- sehrlil afsonaviy ertaklar;
- ijtimoiy- maishiy ertaklar.

Hayotiy ertaklarda tugun hayotiy — real bo'ladi.

Satirik va hayvonlar haqidagi ertaklarda ham tugun hayotiy — real bo'ladi va tanqidiy vazifani ado etadi.

Sehrlil —fantastik ertaklarda esa tugun xayoliy uydirmalar shaklida namoyon bo'ladi.

Ertaklarning xarakterli xususiyati shundaki, ularda fantaziyaga keng o'rin beriladi, mubolag'a, giperbola kabi tasviriy vositalardan foydalaniladi. E'tiborli jihati shundaki, ertaklarda ijobiy qahramon albatta yovuzlik, adolatsizlik, zulm ustidan g'alaba qozonadi, yaxshilik tantana qiladi. Chunki ertak qahramonlari xalq orzu-umidlarini, manfaatini ifodalaydilar.

Ertaklar xalqning necha-necha ming yilliklar davomidagi hayotiy tajribalarini umumlashtirgan holda uning ijtimoiy ongida, estetik didida, axloqiy qarashlarida, e'tiqodida kechgan o'sish-o'zgarishlarning badiiy tarixi sifatida ayricha ahamiyat kasb etgan. Shu bois hozir ham miriqib tinglanadi, sevilib o'qiladi,

eng muhimi, navqiron avlodning ma'naviy-axloqiy kamol topishida beqiyos ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Bolalar xalq og'zaki ijodida maqol yetakchi o'rinda turadi. Maqol — qisqa va lo'nda, obrazli, grammatik va mantiqiy jihatdan chuqur mazmunga ega bo'lgan janr.

Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan bo'ladi. Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, balki ma'lum bir sharoit taqozosi bilan hayotiy tajribadan xulosa sifatida yuzaga keladi. Har bir maqolda o'sha xalqning qalbi, milliy saviyasi ifodalanadi.

Oilada ota-ona o'z farzandini tarbiya qilar, farzandlarning avvalo bir biriga ahil inoq bo'lib munosabatda bo'lishini xohlashadi. Ular o'z pand-u nasihatlarida, so'zlarini maqollar vositasida ta'sirchanliklarini oshirishlari mumkin. Chunki xalqning boshidan kechirgan xulosalari, ibrat so'zlari o'z ahamiyatini oqlayotganini barchamiz ko'rib turibmiz. Masalan, kuch birlikda deyish bilan, ahil bo'lishni, bir biriga ko'maklashishni, qo'llab-quvvatlashni bildirib, barcha to'siqlarni yengish kuch qudratning birlashuvi natijasida erishilishi ta'kidlanadi.

Maqol shunday so'zki, so'zga husn beradi, fikrni tushunib olishni osonlashtiradi, uni yorqin ta'sirchan qiladi. Shuning uchun ham maqol odamlar nutqida har doim hamroh bo'ladi. Kimki, uni ko'p ishlatsa o'shaning nutqini shirali deydilar va diqqat bilan eshitadilar.

Maqollarni har bir farzand mutolaa qilar ekan u nafaqat yodida, balki qalbida o'rmashib qoladi. Shuning uchun oilada bolalarga maqollarni yod oldirish, uning asosiy mazmun va mohiyatlarini tushuntirish kerak. Maqollarning tarbiyaviy kuchi asnosida ulg'aygan bola o'zining yo'li va so'zini to'g'ri belgilay oladi.

Bugungi kunda maqollarning o'rni va ahamiyati haqida gapiradigan bo'lsak, oiladagi tarbiyada avvalo muhim kasb etishini aytib o'tmoqchiman. Negaki, asosiy tarbiya oilada berilib, shakllantirilib boriladi. Oiladagi muhit, oiladagi tabiyaviy sharoit bolaning xulq atvorida nomoyon bo'ladi. Shuning uchun ham dono xalqimiz "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deb bejiz aytilmagan, Maqollar hayot maktabining asosiy darslik va qoidalaridir.

Har bir xalqning folklorshunosligi hisoblanmish maqol janriga nazar tashlar ekanmiz biz bu janrning naqadar beqiyos ekaniga guvoh bo'lamiz. Xulosa qilib

aytganda qaysi til, madaniyat bo'lishidan qat'iy nazar maqollar juda chuqur ma'noli boy janr hisoblanishiga amin bo'lamiz.

Har bir xalq o'z ma'naviy taraqqiyotida o'zining turmush tajribalarini, o'z qarash va g'oyalarini ma'naviy meros sifatida og'zaki va yozma tarzda kelgusi avlodga qoldirgan. Bizning xalq og'zaki ijodimiz vaqt sinovida toblangan, tajribalar sinovidan o'tgan millat dunyoqarashidan kelib chiqqan o'mas durdonalardir. O'zbek xalqining har bir avlodi xalq ommasining bir necha asrlar moboynda to'plagan tabiya an'alarini bolani hayotga va mehnatga tayyorlashda qo'llab kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbek xalq maqollari" T.Mirzayev,A. Musaqulov. Toshkent(2005)
2. Razzoqov H., Mirzaev T., Sobirov O., Imomov K. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. –T.: O'qituvchi, 1980. 320 b.
3. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. Uch tomlik, –T.: 1960.
4. Sulaymonov M.O'zbek xalq og'zaki ijodi. Ma'ruzalar matni, Namangan, 2001 yil.
5. Mamasoli Jumaboyev "Bolalar adabiyoti va falklor " Toshkent — 2006